

**ZA'FARON O'SIMLIGINING FARMAKOLOGIK AHAMIYATI VA
QO'LLANILISHI**

Fayzullayeva Ma'suma Zuboydulla qizi

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Biotexnologiya, injenering va farmatsiya
fakultetining 4-bosqich talabasi*

Tel: +998 94 094 09 52; E-mail: masumafayzullayeva0@gmail.com

Husanova Farangiz O'tkir qizi

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Biotexnologiya, injenering va farmatsiya
fakultetining 1-bosqich talabasi*

Tel: +998 77 196 09 02; E-mail: farangizhusanova54@gmail.com

Ilmiy rahbar: Oltiboyeva Mavsuma G'ulom qizi

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Farmatsiya ishini tashkil qilish kafedrası
asissenti Samarqand, O'zbekiston*

Za'faron (*Crocus sativus* – lotin.)(arabcha- shafran) –sapsarguldoshlarga mansub ko'p yillik o'tsimon tuganak piyozli o'simlik. Yovvoyi holda uchramaydi. Hindiston, Pokiston, Xitoy, Janubiy Yevropa, Ozarbayjonda katta maydonlarda ekiladi. Piyozining diametri 1-2 santimetr. Bargi 5-15 ta, och sariq rangda; eni 2 mm, tuksiz. Guli 1-4 ta, gultoqi oqish, pastki qismi (tashqi tomondan) binafsha rang, uzunligi 2-4 sm. Changchilari gulqo'rg'ondan qisqa. Ko'sagi cho'ziq, eni 6-7 mm. Fevral—iyul oylarda gullaydi, aprel—avgustda esa meva beradi. Tarkibida efir moyi bo'lgani uchun hidi juda o'tkir va yoqimli. 90—100 ming dona 3. gulidan 1 kg kurigan gul tumshuqchalari olinadi. 3. gulining quritilgan tumshuqchalari murabbo, tortlar rangi va ta'mini yaxshilash, oziq-ovqat (pishloq, sariyog', likyor va b. rang berish uchun), [parfyumeriya](#) (atirupa) sanoatida ishlatiladi. Xalq tabobatida za'faron o'nlab xastaliklarni davolashda ishlatilgan [Abu Ali ibn Sino](#) za'faron inson terisini rangli chiroyli, ko'zni ravshan, yurakni quvvatli, nafas a'zolarini sog'lom qilishini yozib qoldirgan. Uning ikkinchi nomi ya'ni shafran arabcha “Za-fran” so'zidan kelib chiqqan bo'lib “za'fran” sapsariq,sarg'ish degan ma'noni anglatadi. Za'faron-qimmatbaho dorivor va ziravor o'simlik bo'lib u asosan *Crocus sativus* guli changchilari(pistillar)dan olinadi. U qadimdan an'anaviy va zamonaviy tibbiyotda keng qo'llanib kelinadi. Za'faron dorivor xususiyatlarga boy va tarkibida muhim biologik moddalar saqlaydi. Krosetin va krotsin-kuchli antioksidantlar bo'lib, qon aylanishini yaxshilaydi va miya faoliyatini rag'batlantiradi. Safranal-tinchlantiruvchi va antidepressant ta'sirga ega. Flavonoidlar va karotinoidlar-immunitetni mustahkamlashga yordam beradi. Vitaminlar(A,B,C guruhlari) - metabolismni yaxshilaydi va organizmni yoshartiradi. Tibbiyotda ham ko'plab kasalliklarda qo'llaniladi. Asab tizimi kasalliklarida xususan depressiya, stress, asabiylashish, uyqusizlik(insomniya), Alzheimer(Memophenol), Parkinson kabi kasallikni oldini olishda ishlatiladi. Bunda dori shakli kapsula, tabletk, ekstrakt va Saffronal kapsulalari bor. Yurak va qon aylanish tizimida esa qon bosimni pasaytirish, qondagi xolesterinni kamaytirish, yurak-qon tomir kasalliklarini

xavfini kamaytirishda qo'llaniladi. Ko'z sog'lig'ini himoya qilib, makulyar degeneratsiya(ko'rish qobiliyatining pasayishi)ni oldini oladi. Bunga misol qilib Sffron 2020 ko'rsatsak bo'ladi. Ayollarda hayz davrini me'yorlashtiradi va og'riqni kamaytiradi. Eraklarda jinsiy quvvatni ishirishga yordam beradi. Zafaronning yana bir muhim xususiyatlaridan biri bu saraton kasalligiga qarshi qo'llanilishidir. Uning tarkibidagi krosetin va safranal moddalari hujayralarning shikastlanishini oldini oladi. Ba'zi tadqiqotlar uning saraton hujayralarining o'sishini sekinlashtirishga yordam berishini ko'rsatmoqda. Oshqozon yarasi va gastritni davolashga yordam berishi aniqlangan. Za'faron tarkibidagi antioksidantlar va C vitamini organizmni virus va infeksiyalardan himoya qiladi. Surunkali yallig'lanish jarayonlarini kamaytiradi. Bugungi kunda anchagina rivojlangan kosmetologiya sohasida ham anchagina foydalidir. Za'faron terining elastikligini oshiradi va ajinlarni kamaytiradi. Akne va teri yallig'lanishlariga qarshi foydalidir. Unda turli xil asoslar bilan birgalikda tabiiy niqoblar tayyorlanadi. Teriga tabiiy yorqinlik va namlik beradi. Uni iste'mol qilinish turlaridan biri bu damlama va choy shaklidir. Za'faron juda qimmatli va uni parvarishlash, yetishtirish murakkab jarayon. Shuning uchun qadimda Hindistonda zafaronni faqat Maharajalar va qirollik oilalarining a'zolari foydalangan. Bundan tashqari ruhoniylar diniy marosinlar o'tkazgan. Chunki u poklik va muqaddaslik ramzi hisoblangan. Za'faronli aralashmalar diniy marosimlar va ajurveda tibbiyotida shifo beruvchi vosita sifatida ishlatilgan. Oddiy xalq esa arzonroq alternativlardan foydalangan. Masalan zarchava (kurkuma), sandal yog'i yoki boshqa tabiiy o'simlik yog'laridan foydalangan. Hozirgi vaqtdan zafaron dunyoning ko'plab mamlakatlarida turli xil kosmetika, oziq ovqat va boshqa yo'nalishlarda ishlatilib kelinmoqda.



Dunyodagi za'faronning 90% gacha qismini Eronda yetishtiriladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham yuqori sifatli za'faron yetishtirishda salmoqli natijalarga erishildi. Xususan, Jizzax viloyati tumanlari hududlaridagi za'faron plantatsiyalarida yetishtirilayotgan za'faron asosida "BMB HOLDING" tomonidan BMB Za'faron brendi yaratilib, bugungi kunda mazkur brend ostida 15 dan ortiq za'faronli mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.



Statistikaga qaraydigan bo'lsak, 2021-yilda 1,2 million yevro, 2022-yilda 2,7 million yevro, 2023 yilda 4,5 million yevro za'faron mahsulotlari eksport qilindi. Bu yil esa mazkur raqamlar yana bir necha barobar o'sishi kutilmoqda. 1 gektar plantasiyadan birinchi yilda 2 kg, ikkinchi yilda 4 kg, uchinchi yildan boshlab 6-8 kg gacha za'faron guli xom ashyosi terib olish mumkin. Bir kilogramm quritilgan za'faron guli xom ashyosini tayyorlash uchun 150 mingdan ortiq gullari terib olinishi kerak. 1 dona za'faron gulidan o'rtacha 7 mg quritilgan ziravor olinadi. Marketing tadqiqotlari jarayonida jahon bozorida 1 kilogramm za'faronning narxi 400—1000 dollarni, 1 kilogramm gulining bahosi esa 2,5—5 ming dollarni tashkil qilishi aniqlangan. Ba'zi manbalarga ko'ra, «qizil oltin» deya e'tirof etiluvchi za'faron gulining narxi naviga qarab 1 kilogramm uchun 30 ming yevrogacha chiqishi mumkin. Sababi mahsulot yetishtirish uchun katta plantatsiya kerak bo'ladi va gullarni terish ishlarining barchasi qo'lda bajariladi.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bu o'simlikning tibbiyot sohasida foydali xususiyatlarga boy. Iqtisodiy tarafdin esa tannarxi yuqori, yetishtirishda ishchi kuchi talab qiladi. Za'faronni eksport qilish orqali dunyoda uning sotuvini taminlashda yetakcha o'rinlarni egallash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wikipediya-Za'faron
2. Biosfera.uz "Zafaron foydali xususiyatlari va ichish tartibi haqida umumiy ma'lumot"
3. Cyberleninka "Sirli za'faron o'simligi va uning dorivor xususiyatlari
4. Qashstat "umumiy ma'lumot
5. Agro.uz "nima uchun za'faron dunyodagi eng qimmat ziravor hisoblanadi?"
6. PubMed "Za'faronning antidepressant xususiyatlari"
7. National Eye Institute "Za'faron va ko'rish qobiliyati"
8. ScienceDirect "Za'faronning antioksidant xususiyatlari"
9. Alzheimer's Research&Therapy "Za'faron va kognitiv faoliyat"
10. Cancer Research Journal "Za'faronning saratonga ta'siri"
11. Journal of Reproductive Health "Zafaronning gormonal ta'siri"
12. <https://kun.uz/news/2021/04/02/ozbekiston-saudiya-arabistoniga-zafaron-eksport-qilishi-mumkin>
13. <https://m.kun.uz/news/2022/09/24/ozbekiston-zafaron-yetishtirishda-dunyo-yetakchisiga-aylanmoqchi>